Gwangju shahar ijtimoiy himoya yordam puli haqida ma’lumot (chet el fuqarolari uchun)

Kim uchun	2021-yil 1-dekabr soat 24 xolatida Gwangju shahrida ro’yxatdan o’tgan chet el fuqarolari va fuqarolgi boshqa bo’lgan Kareyslar ※ Yangi tug’ilgan chaqaloqlarning ota-onalari subsidiya olishi mumkin, agar tug’ilganlik haqida guvohnoma berilsa ularga ham subsidiya beriladi
Subsidiya miqdori	Kishi boshiga 100 ming won
To’lov usuli	Oldindan to’lov qilinadigan plastik karta orqali beriladi

Ariza topshirish muddati	2022-yil, 17-yanvardan ~ 28-fevralgacha
Birinchi hafta	* Birinchi haftada(17-yan ~ 21-yan) tug’ilgan yili oxirgi raqamiga qarab boriladi

17-yan (Du)	18-yan (Se)	19-yan (Chor)	20-yan (Pay)	21-yan (Juma)
1, 6	2, 7	3, 8	4, 9	5, 0

Ish vaqti	Hafta kunlari 9:00 dan 18:00 gacha
Ariza qanday topshiriladi	* Ariza topshirish uchun yashash joyidagi ijtimoiy yordam markaziga murojat qiling * Ariza bilan birga shaxsni tadiqlovchi hujjat (id karta) - Shaxsni tasqidlovchi (bittasini tanlang) : id karta, ro’yxatdan o’tganlik haqida guvohnoma, yashash joyidan ma’lumot * Boshqa shaxs uchun ariza topshirishda, o’sha shaxsning id kartasi, ishonchnoma va boshqalar
Boshqa shaxs uchun ariza topshirish	* Boshqa shaxs uchun ariza topshirish mumkin: er-hotin, bobo-nevara, aka-uka, opa-singillar * Voyaga yetmaganlar (2002-yil, 2-dekabrdan keyin tug’ilganlar) : Yuridik vakil

Boshqalar	Karta yo’qtib qo’yilganda yoki daromad solig’i to’lansa, Kwangju Bank foydalanuvchilarigina qayta olishi mumkin <Xisobni tekshirish> - Gwangju Bank aloqa markazi (☎1577-3650) : telefon qilib 832 ni bosib tekshiring - Kartadan foydalanishda chekni tagida qoldiqni tekshirish mumkin (bazi joylarda bu yo’q bo’lishi ham mumkin) <Yo’qotilganda yoki zarar yetganda qayta olish> - Foydalanuvchi nomidan ariza topshirsagina qayta olish mumkin - Gwangju Bankiga borib ariza topshiriladi < Foydalanuvchi nomidan ariza > - Gwangju Bank sayti (www.kjbank.com) : quyidagi tartibda saytdan foydalaning Menu>shaxsiy bank>karta>sovg’a karta>registratsiya 전체메뉴>개인뱅킹>카드>기프트카드>사용등록 - Gwangju Bank aloqa markazi (☎1577-3650) : telefon qilib 831 ni bosib ariza topshiring
Amal qilish middati	2022-yil, 31-maygacha
Ishlatish joyi	Faqat Gwangju shahrida ishlatish mumkin
Qayerda ishlatish mumkin	Savdo markazi, katta supermarketlar, supermarketlar, o’yin va kongil ochar joylar, soliq ・ kamunal to’lovlar , transport xarajatlari (poyezd ・ avtobus ・ taksi ・ samolyot), online savdo, yetkazib berish(‘위매프오’ orqali ishlatish mumkin)

Malumot

Bir oila azolaridan tashqari boshqa shaxs uchun ariza topshirishda kerakli hijjatlar

○ (**Boshqa shaxs uchun ariza topshirish**) Bir oila azolari uchun mumkin, faqat quyidagi hujjatlar taqdim etilsa boshqa shaxs o’rniga ariza topshirish mumkin

Turlari	Boshqa shaxs o’rniga ariza topshirish mumkin	Kerakli hujjatlar				Boshqalar
		Idkarta (arizachi)	Idkarta (oluvchi)	Ishonchnoma	Aloqa haqida guvohnoma	
①Qariyalar, nogironlar, kasalxonada yotganlar ※Qobilyati cheklanganlar 5-ga qarang	Er-hotin, bobo-nevara, aka-uka, opa-singillar	○	○	○	○	
②Voyaga yetmaganlar	Yuridik vakil	○			○	
③Harbiy xizmatdagilar	Er-hotin, bobo-nevara, aka-uka, opa-singillar	○			○	(Qo’shimcha) xizmat haqida guvohnoma
④Chet elda yashovchilar		○		○	○	(Qo’shimcha) Kirib chiqish malumotnomasi
⑤Qobilyati cheklangan shaxs		○			○	(Qo’shimcha) Qobilyati cheklanganlik haqida malumotnoma
⑥Ahloq tuzatish koloniyasi	Er-hotin, bobo-nevara, aka-uka, opa-singillar	○			○	(Qo’shimcha) Ahloq tuzatish koloniyasidaligini tasdiqlovchi hujjat
	(Ahloq tuzatish koloniyasi rahbari orqali ariza topshirishi mumkin)					Ahloq tuzatish koloniyasi rahbari arizachilar ro’yxatini tuzib rasmiy ariza topshiradi

⑦ Zo’ravonlik qurbonlari	Reabilidatsiya markazi rahbari (o’rniga boshqa shaxs ariza topshirishini xohlasa)	◦ (Markaz rahbari)		◦	◦ (Markazni tasdiqlovchi hujjat)	(Qo’shimcha) Reabilidatsiya markazidaligini tasdiqlovchi hujjat
⑧ Bolalar uyi, yolg’iz yashovchi bolalar	Bolalar uyi rahbari, yuridik vakili	◦			◦ (Qo’shimcha malumot)	*(Asrab olingan bolalar) Asrab olinganlik haqida rasmiy hujjat *(Bolalar uyi tarbiyalanuvchisi) Bolalar uyi rahbaridan raasmiy hujjat

□ Chet elliklar uchun

7-1	Qayta tiklanish subsidiyasi kimlarga beriladi?

❍ 2021-yil 1-dekabr soat 24:00 xolatida

Gwangju shahrida ro’yxatdan o’tgan chet el fuqarolari va fuqarolgi boshqa bo’lgan Kareyslar.

7-2	Subsidiya qanday qilib olinadi?

❍ Oldindan to’lov qilinadigan plastik karta orqali beriladi.

7-3	Ariza topshirish muddatida tug’ilgan chaqloq ham yordam puli oladimi?

❍ Koreyslar kabi

yangi tug’ilgan (2021-yil, 1-dekabrdan oldin) chaqaloqlarning ota-onalari subsidiya olishi mumkin, agar tug’ilganlik haqida guvohnoma berilsa ularga ham subsidiya beriladi

7-4	Chet elliklar ham 5 kunlik tizimda ofline ariza topshiradimi?

❍ Chet elliklar ham 5 kunlik tizimda ofline ariza topshira oladi.

❍ Tug’ilgan yili oxirgi raqamiga qarab qaysi kuni ariza topshirishi belgilanadi.

(Misol) id karta raqami 123456-456899 ⇒ tug’ilgan yili oxirgi raqami(2) : Seshanba

17-yan (Du)	18-yan (Se)	19-yan (Chor)	20-yan (Pay)	21-yan (Juma)
1, 6	2, 7	3, 8	4, 9	5, 0

7-5	Boshqa shaxs o’rniga ariza topshirsa bo’ladimi?

❍ Oila azoligi haqida guvohnomasi bor yoki oilaviy sug’urtaga a’zo bo’lganlar bir biri o’rniga ariza topshira oladi.

7-6	Agar ota-ona yoki yuridik valik ijotimoiy yordam markaziga voyaga yetmagan shaxs bilan kelsa va oila azoligini tasqidlovchi hujjati bo’lmasa nima qilish kerak?

❍ Oila azoligini tasqidlovchi hujjati bo’lmasa, quyidagi ikki xolatda yordam puli beriladi

① Voyaga ketmagan shaxs otasi yoki onasi bilan ijtimoiy yordam markaziga id kartasi bilan kelganda

(Voyaga yetmagan shaxs ham id karta bilan kelishi kerak)

② Voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi bilan yashash joyi bir xil bo’lgan xolatda

7-7	Visa muddati tugaganidan keyin ham yordam puli olsa bo’ladimi?

❍ 2021-yil 1-dekabr xolatida ro’yxatdan o’tgan chet ellik bo’lsa ham, misol uchun 2022-yil 14-fevralda visa muddati tugaydigan bo’lsa, 2022-yil 14-fevralgacha ariza topshira oladi.

❍ Ariza topshirish paytida visa muddati tugagan bo’lsa yordam puli berilmaydi

7-8	Noqonuniy yashovchi chet elliklar ham yordam puli oladimi?

❍ Noqonuniy yashovchi chet elliklar qonuniy statusga ega bo’lmagani uchun yordam puli ololmaydi.

7-9	2021-yil 1-dekabr xolatida Gwangju shahrida yashagan, ammo Koronavirus tufayli o’z yurtiga qayta olmayotgan (id kartasini topshirgan) chet elliklar ham yordam puli ololadimi?

❍ Avichipta yo’qligi va boshqa arzirli sabablarga ko’ra chiqib ketish muddati o’tgan xolatda, mamlakatda vaqtincha yashab turish mumkin, ammo qonuniy ro’yhatdan o’tmagan xisoblanadi.

❍ Yordam puli Gwangju shahrida qonuniy doimiy yaxshovchi chet elliklar uchun beriladi, shu sababli bunday shaxslar yordam puli ololmaydi.

7-10	Yordam puli olish huquqiga ega, ammo vaqtincha chet elda bo’lgan chet elliklar yordam puli ololadimi?

❍ Chet elda bo’lib turgan chet el fuqarosi o’zi ariza topshira olmaydi, shuning uchun Gwangjudagi biror oila azozi orqali ariza topshirishi kerak.